

## **O'ZBEKISTONDA ALOHIDA YORDAMGA MUHTOJ BOLALAR NING INKLYUZIV TA'LIMI TASHKIL ETISH.**

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti Pedagogika fakulteti*

*Pedagogika kafedirasiga o'qituvchisi*

**Rahmatullayev Botir Sobir o'g'li**

*Tarix yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

**Rustamova Sevinch Faxriddin qizi**

**Rahmatullayevbotir70@gmail.com**

**https://orcid.org/0009-0001-8327-7309**

**rustamovasevinch144@gmail.com**

**https://orcid.org/009-0001-1800-6908**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekistonda inklyuziv ta'limning holati, uning asosiy vazifalari, ijtimoiy ahamiyati va amalga oshirilayotgan islohotlar tahlil qilingan. Inklyuziv ta'lim nogironligi bo'lgan bolalarning teng huquqli tarzda ta'lim olishini ta'minlash, ularning jamiyatga moslashuvi uchun zarur sharoitlar yaratishga qaratilgan. Maqolada inklyuziv ta'limning mafkuraviy asoslari, maxsus ehtiyojli bolalarni qo'llab-quvvatlovchi davlat dasturlari, pedagogik yondashuvlar va ta'lim muassasalarining roli chuqur yoritilgan. Ta'limdagi tenglik, ijtimoiy inklyuziya va pedagogik ko'makning muhimligi alohida ta'kidlanadi.

**Kalit so'zlar:** Inklyuziv ta'lim, inklyuziv, maxsus ehtiyoj, imkoniyati cheklangan bolalar, pedagogik yondashuv, ta'limdagi tenglik, ijtimoiy integratsiya, davlat dasturi, o'qituvchi malakasi, infratuzilma.

**Abstract:** This article analyzes the state of inclusive education in Uzbekistan, its main tasks, social significance and ongoing reforms. Inclusive education is aimed at ensuring equal access to education for children with disabilities and creating the necessary conditions for their adaptation to society. The article deeply covers the ideological foundations of inclusive education, state programs supporting children with special needs, pedagogical approaches

and the role of educational institutions. The importance of equality in education, social inclusion and pedagogical support is emphasized.

**Keywords:** Inclusive education, inclusive, special needs, children with disabilities, pedagogical approach, equality in education, social integration, state program, teacher qualifications, infrastructure.

**Абстрактный:** В статье анализируется состояние инклюзивного образования в Узбекистане, его основные задачи, социальная значимость и проводимые реформы. Инклюзивное образование направлено на обеспечение равного доступа к образованию для детей с ограниченными возможностями и создание необходимых условий для их интеграции в общество. В статье подробно рассматриваются идеологические основы инклюзивного образования, государственные программы поддержки детей с особыми потребностями, педагогические подходы и роль образовательных учреждений. Подчеркивается важность равенства в образовании, социальной интеграции и педагогической поддержки.

**Ключевые слова:** Инклюзивное образование, инклюзивный, особые потребности, дети с ограниченными возможностями, педагогический подход, равенство в образовании, социальная интеграция, государственная программа, квалификация учителей, инфраструктура.

Inklyuziv ta'lim - bu jinsi, millati, dini va rivojlanish xususiyatlaridan qat'i nazar, barcha bolalarni ta'lim olish va ijtimoiy moslashuvga jalb qilish jarayoni hisoblanadi. Inklyuziv ta'limning asosiy maqsadi jamiyatda sog'lom shaxslararo munosabatlarni o'rnatishdir. Odamlar odatdagidek inson madaniyati xilma-xilligi, insonning namoyon bo'lishi va inson salomatligi bilan bog'liqlikni o'rganishlari kerak. Nogiron bolalar, asosan faqatgina oilalari bilan muloqotda bo'lib, ulg'ayishga tayyor emaslar. Va umumiy ta'lim tashkiloti - bu bolalar uchun inklyuziya rejimida o'rganish, boshqa bolalar bilan muloqot qilish va dunyo bilan tanishish uchun yagona imkoniyatdir.

Inklyuziv - bu nogiron bolalar oddiy bolalar bilan birgalikda davlat dasturi bo'yicha o'qish, boshqa bolalar singari bilimlarni egallash. Inklyuziv ta'lim mutaxassislarning

o‘zaro ta’sirini tashkil qilmasdan turib samaradorlikni oshirib bo’lmaydi. Jamoaning bunday o‘zaro ta’siri quyidagicha ta’riflanadi: nogiron bolani rivojlantirishning yagona strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishga qaratilgan hamkorlik va uning oilasini qo‘llab-quvvatlashni tashkil etish.[1]

Vazirlar Mahkamasi tomonidan 12.10.2021-yildagi «Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida»gi 638-son qaror qabul qilindi. Hujjat 13.10.2020-yildagi «Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ-4860-son qarorga muvofiq ishlab chiqilgan.

2020-2025-yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ko‘rsatiladigan ta’lim xizmatlari sifatini yaxshilash bo‘yicha quyidagi vazifalar belgilandi:

- alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ta’lim oladigan ta’lim muassasalarini binolariga qo‘yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash;
- alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar o‘qitiladigan ta’lim muassasalarini zarur adabiyotlar, metodik qo‘llanmalar, turli kasblarga o‘qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta’minalashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni o‘qitish uchun inklyuziv ta’lim tizimini tashkil etish, umumta’lim muassasalarini maxsus moslamalar (ko‘tarish qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), shuningdek tegishli kadrlar (maxsus pedagog, bolalarni ruhiy-pedagogik kuzatish bo‘yicha mutaxassislar) bilan ta’minalash;
- alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning moslashishi va integratsiyasi uchun maktab-internatlarni bosqichma-bosqich maxsus jihozlar bilan ta’minalash va boshqalar.[2]

Barcha ta’lim tizimlarining maqsad va vazifalari bo‘lgani kabi inklyuziv ta’limning ham o‘z vazifalari mavjud. Bularga quyidagilar kiradi:

- Ta’lim muassasalarida alohida yordamga muhtoj bo‘lgan bolalar va o‘smlarning ta’lim olishlari uchun zarur bo‘lgan psixologik, umumta’lim-pedagogik hamda korreksion shart-sharoitlar yaratish, ularning imkoniyatiga mos dasturlarini ishlab chiqish;

- Maxsus ta'lim muassasasi o'quvchilarini umumta'lim maktablari bilan uy-
- Maxsus ta'lim muassasasi o'quvchilarini umumta'lim maktablari bilan uyg'unlikda faoliyat olib borishi yo'li bilan o'quvchilarning ta'limdagi tenglik huquqini kafolatlash;
- Alohida yordamga muhtoj hamda sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etishda jamiyat va oilaning faol ishtirokini ta'minlash;
- Bolaning ehtiyojlarni qondirish;
- Alohida yordamga muhtoj bolalarni jamiyatga, ijtimoiy hayotga erta moslashtirish;
- Imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlarni oilalaridan ajralmagan holda yashash huquqini ro'yobga chiqarish.[3]

Aynan bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlari infratuzilmasini modernizatsiya qilishning asosiy maqsadlaridan biri fuqarolarning sifatli ta'lim olish huquqlarini ta'minlashdan iborat. Modernizatsiya jarayonida imkoniyati cheklangan bolalarga zamonaviy ta'lim olish imkonini beruvchi to'siqsiz muhit maktabgacha ta'lim tashkilotlarini yaratish, maktabgacha ta'lim tashkilotlari va ijtimoiy muassasalar o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish vazifasi hal etilmoqda. Inklyuziv ta'lim ularga maktabgacha yoshdag'i bolalarti muhitida o'rghanish va rivojlanish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, inklyuziv guruhning barcha bolalariga ta'lim jarayoniga jalb qilish uchun teng sharoitlar yaratilishini ta'minlaydi. O'zbekiston Respublikasida imkoniyati cheklangan bolalar bilan bog'liq tahlil va dastlabki baholash ishlari 1966-yilda boshlangan. Hozirgi kunda O'zbekistonda 250000ga yaqin turli ko'rinishdagi imkoniyati cheklangan bolalar (16 yoshgacha) ta'lim olish ehtiyojiga ega.[4]

Inklyuziv ta'lim tizimida o'qituvchilarning kasbiy mahorati va hamkorligi, avvalo, alohida ehtiyojli bolalar bilan ishslashning o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq. Inklyuziv ta'lim nogironligi bo'lgan bolalarga nisbatan har qanday holatlarni istisno etadigan, barcha uchun teng muomalani ta'minlaydigan, lekin maxsus ta'lim extiyojiga ega bolalar uchun zarur sharoit yaratadigan mafkuraga asoslanadi. Bugungi kunda nogironligi va rivojlanishida nuqsonlari bo'lgan bolalar sifatli ta'lim olishlari va keyinchalik munosib ish topishlari uchun

ularga haqiqiy inklyuziv sharoitlarni yaratish bo'yicha mamlakatimizda bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.

Umumiy ta'lim dasturining muvaffaqiyatlari o'zlashtirilishi uchun nogiron o'quvchilarga maxsus sharoitlar yaratib berilishi kerak. Avvalo, biz mashg'ulotga yondashuvlarni individualizatsiya qilish, xususan, mashg'ulotni tashkil etish uchun shart-sharoitlarni tanlash, vazifalarni bajarish shaklini individuallashtirish va natijalarni taqdim etishning maqbul usullarini tanlash, natijalarni sifatli baholashga yondashish talab qilinadi Inklyuziv ta'lim tizimida o'qituvchilarni ishlashga tayyorlashning bilim to'siqlaridan biri bu hattiharakatlarida passiv rivojlanish va tuzatishga qaratilgan ishlarini amalga oshirishga qaratilgan asoslar to'g'risidagi bilimlardir. Ushbu bilimlar orqali alohida ehtiyojga ega bolalarni o'qitish va tarbiyalashni tashkil qilishda pedagogik faoliyatning dolzarb vakolatlarini shakllantirishdir. Shu munosabat bilan o'qituvchining psixologik bilimlari va pedagogik vakolatlarini oshirishga qaratilgan maxsus treninglarni tashkil etish alohida muhim rol o'ynaydi.[5]

Xulosa qilib aytganda, inklyuziv ta'lim bugungi kunda nafaqat ta'lim tizimining bir bo'lagi, balki jamiyatning insonparvarlik darajasini ko'rsatuvchi mezon hisoblanadi. O'zbekiston hukumati tomonidan qabul qilingan qarorlar, dasturlar va tashabbuslar inklyuziv ta'limni bosqichma-bosqich joriy etish va rivojlantirishga yo'naltirilgan. Maqolada ta'kidlanganidek, faqatgina moddiy-texnik ta'minot emas, balki o'qituvchilarning psixologik va pedagogik tayyorgarligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Inklyuziv muhit orqali bolalar nafaqat ta'lim oladilar, balki ijtimoiy hayotga moslashishni, o'z tengdoshlari bilan birgalikda yashash va rivojlanishni ham o'rghanadilar. Bu esa ularning kelajakda mustaqil, faol va to'laqonli fuqarolar bo'lib shakllanishiga xizmat qiladi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. X.Muzaffarova, O.Tursunqulova "O'zbekiston Respublikasida imkoniyati cheklangan bolalarga inklyuziv ta'lim tizimining joriy etilishi masalalari".  
<https://fli.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/3915>
2. [Болалар учун инклузив таълим қандай ташкил этилади | NORMA.UZ](#)

3. M.Nizamova “Imkoniyati cheklangan bolalar va ularni inklyuziv ta’limga jalg’etish”. <https://researchedu.org/index.php/cf/issue/view/39>

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 13-oktabrda qabul qilingan “Alohidat a’lim olish ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.

5. F.U.Qodirova, D.A.Pulatova “Inklyuziv ta’lim: nazariya va metodika”. Chirchiq-2022. 140-145-b.